

COLLECTION

Innovation, integration and modern
problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and
practice

www.d-pressa.com

31
MARCH



Jizzakh, Uzbekistan

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN
NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE
JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and practice collection of materials of the
international scientific and practical conference on the topic

(March 31, 2026)

Jizzakh-2026

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young researchers and students: theory and practice – Jizzakh: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, March 31, 2026, 1001 pp.

Editors in charge: Ass.prof. Soy M.P.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

JAHON IQTISODIYOTINI GLOBALLASHUVINING QARAMA- QARSHILIKLARI

Bo‘ltakov Sardor Oqbo‘ta o‘g‘li

*O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrasida
stajyor o‘qituvchi*

sardorboltakov9@gmail.com

Axrorov Sardor Anvarjon o‘g‘li

*O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali Iqtisodiyot yo‘nalishi 131-23
guruh talabasi*

sardoraxrorov608@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy dunyoda globallashuv nafaqat iqtisodiy tushuncha, balki insoniyat taraqqiyotining yangi va qaytarilmas bosqichiga aylandi. Bugungi kunda biror bir davlat yoki jamiyat jahon iqtisodiy, siyosiy va axborot tizimidan tashqarida samarali rivojlana olmaydi. Globallashuv jarayonlari milliy chegaralarni «shaffof» holatga keltirib, davlatlararo bog‘liqlikni misli ko‘rilmagan darajaga ko‘tardi. Biroq, ushbu jarayonning bahsli tabiati shundaki, u bir vaqtning o‘zida ham ulkan taraqqiyot imkoniyatlarini, ham chuqur tizimli inqirozlarni keltirib chiqarmoqda. Maqolada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovut, transmilliy korporatsiyalar ta‘sirining ortishi, milliy iqtisodiy manfaatlarining cheklanishi hamda global iqtisodiy tengsizlik kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, globallashuv sharoitida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash va milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshirish masalalariga ham e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, jahon iqtisodiyoti, iqtisodiy integratsiya, xalqaro savdo, global bozor, kapital harakati, transmilliy korporatsiyalar, global raqobat, iqtisodiy tengsizlik, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi tafovut, milliy iqtisodiy xavfsizlik, investitsiya muhiti, texnologik taraqqiyot.

Globallashuv zamonaviy sivilizatsiyaning shunday bir bosqichiki, unda dunyoning bir chekkasida sodir bo‘lgan voqea yoki qabul qilingan iqtisodiy qaror bir necha daqiqadan so‘ng butun sayyoraga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Ushbu jarayonning muqarrarligi, birinchi navbatda, fan-texnika taraqqiyoti va jahon bozorining chuqur integratsiyalashuvi bilan bog‘liqdir. Bugungi kunda ishlab chiqarish zanjirlari shunchalik murakkablashganki, hatto oddiy bir mahsulotni tayyorlash uchun o‘nlab davlatlarning xomashyosi, texnologiyasi va intellektual salohiyati birlashishi talab etiladi. Shu ma‘noda, globallashuvni to‘xtatishga urinish - bu jahon iqtisodiy taraqqiyotidan butunlay uzilib qolish bilan barobardir. Biroq, bu muqarrarlik o‘zining orqasidan juda katta bahsli masalalarni ham yetaklab keldi.

Jarayonning asosiy ziddiyati uning natijalari barcha uchun adolatli taqsimlanmayotganligida namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, globallashuv kambag‘al mamlakatlarga yangi investitsiyalar va ish o‘rinlarini olib kelayotgandek ko‘rinsada, amalda u «aqli» va boy davlatlarning yanada boyishiga, qoloq davlatlarning esa

qarz va xomashyo qaramligiga tushib qolishiga sharoit yaratmoqda. Bahslarning markazida turgan yana bir jihat - bu iqtisodiy chegaralarning yo'qolishi natijasida milliy davlatlarning o'z mustaqilligini qisman bo'lsada boy berayotganidir. Global bozor qoidalari va xalqaro moliya institutlarining talablari ko'pincha milliy manfaatlardan ustun qo'yilmoqda, bu esa jamiyatlarda «global hukmronlik»ka nisbatan norozilik kayfiyatini uyg'otmoqda. Shuningdek, iqtisodiy globallashuv o'z ortidan madaniy unifikatsiyani, ya'ni dunyo xalqlarining milliy qadriyatlarini o'rnini bir xil andozadagi global iste'mol madaniyati egallashini olib kelmoqda. Mana shu omillar globallashuvni nafaqat iqtisodiy hodisa, balki insoniyat taqdirini belgilovchi eng murakkab va qarama-qarshi ijtimoiy-falsafiy jarayonga aylantirdi.

Globallashuvning eng muhim 5 ta ijobiy ustuni:

1. Global qashshoqlikni bartaraf etish: «Insoniyat najoti». Globallashuv so'nggi o'ttiz yillikda insoniyat tarixidagi eng katta ijtimoiy yutuqqa sabab bo'ldi. Dunyo bozorlarining ochilishi va xalqaro savdoning kengayishi natijasida o'ta qashshoqlikda yashayotgan aholi ulushi 1990-yildagi 36 foizdan bugungi kunda 9 foizga tushdi. Bu shunchaki statistika emas - bu deyarli 1,2 milliard insonning ochlik va muhtojlik domidan qutilib, munosib hayotga qadam qo'yganidir. Ayniqsa, Xitoy, Hindiston va Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarining global iqtisodiy zanjirga qo'shilishi ushbu hududlarda misli ko'rilmagan «iqtisodiy mo'jiza»ni yaratdi.

2. Jahon savdosining mislsiz kengayishi: «Yagona iqtisodiy qon aylanish tizimi»

Agar 1950-yillarda jahon savdosi mahalliyliklashgan va cheklangan bo'lsa, bugungi kunda u sayyoraning yaxlit «qon aylanish tizimi»ga aylandi. Savdo hajmi qariyb 40 baravarga o'sib, 2024-yilda 32,2 trillion dollarlik rekord marraga yetgani shuni anglatadiki, endilikda dunyo iqtisodiyoti geografik chegaralarni tan olmaydi. Bu tizim tufayli har qanday davlat, o'zining tabiiy resurslari kam bo'lsa-da (masalan, Singapur yoki Janubiy Koreya kabi), global bozorda o'z o'rnini topish va boyish imkoniyatiga ega bo'ldi.

3. Texnologik sakrash (Leapfrogging): «Vaqtning ortda qoldirgan taraqqiyot» Globallashuv rivojlanayotgan davlatlarga taraqqiyotning o'nlab yillik bosqichlarini sakrab o'tish imkonini berdi. Masalan, ko'plab Afrika va Markaziy Osiyo davlatlari stasionar telefon aloqasi bosqichidan darhol eng zamonaviy 5G va mobil internet bosqichiga o'tdi. Rivojlangan davlatlardagi ilmiy kashfiyotlar va nou-xaular transferi natijasida mehnat unumdorligi yiliga o'rtacha 0,7 foiz bandiga o'smoqda. Bu degani, qoloq mamlakatlar g'ildirakni qayta kashf qilmasdan, tayyor yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish orqali o'z sanoatini bir necha barobar tezroq modernizatsiya qilmoqda.

4. Iste'molchilar inqilobi: «Global qulaylik hamma uchun» Bugungi kunda dunyoning eng chekka qishlog'idagi inson ham Nyu-York yoki Tokiodagi kabi smartfondan foydalanishi, eng so'nggi rusumdagi dori-darmonlarni sotib olishi mumkin. Global raqobat ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, narxlarni keskin pasaytirdi. Masalan, 1980-yillarda faqat elita qatlami uchun bo'lgan kompyuter texnikasi va aloqa vositalari bugun ommaviy ehtiyojga aylandi. Bu jarayon nafaqat

moddiy boylikni, balki hayot sifatini unifikatsiya qildi - zamonaviy turmush tarzi va tibbiy xizmatlar hamma uchun ochiq (inklyuziv) bo'lishiga zamin yaratdi.

5. Inson kapitalining cheksiz harakati: «Miyalar uyg'onishi». Globallashuv inson aqlining chegaralarini parchaladi. Har yili millionlab talabalar xalqaro ta'lim dasturlari orqali dunyoning eng nufuzli universitetlarida bilim olmoqda. «Miyalar almashinuvi» (Brain circulation) natijasida mutaxassislar global darajadagi tajribaga ega bo'lib, o'z vatani taraqqiyotiga yangicha ruh olib kirmoqda. Dunyo bo'ylab intellektual salohiyatning birlashishi saraton kabi kasalliklarga qarshi vaksinalar yaratish, iqlim o'zgarishiga qarshi global kurash kabi masalalarda insoniyatning umumiy qudratini bir necha barobar oshirdi.

Har bir buyuk jarayonning o'z soyasi bo'lganidek, globallashuv ham o'z ortidan chuqur tizimli jarohatlarni olib keldi. U ba'zilar uchun taraqqiyot bo'lsa, boshqalar uchun o'zlikni yo'qotish va qaramlikka aylandi.

Globallashuvning 5 ta tizimli qarama-qarshiligi

- Daromadlar tengsizligi va ijtimoiy qutblanish.
- Ekologik tanazzul va iqlim inqirozi.
- Milliy suverenitetning zaiflashuvi va TMKlar hukmronligi.
- Mehnat resurslarining ekspluatatsiyasi va «Miyalar oqimi».
- Madaniy unifikatsiya va milliy o'zlikning yo'qolishi.

Daromadlar tengsizligi: «Boyigan elita va qashshoqlashgan ko'pchilik» Tarixda sanoat inqilobi davrida ham boy va kambag'al o'rtasida farq bo'lgan, biroq globallashuv bu farqni «kosmik» darajaga olib chiqdi. Agar o'tmishda boylik yer yoki oltin bilan o'lgangan bo'lsa, bugun u global moliya tarmoqlari orqali bir necha kishining qo'lida jamlanmoqda. Oxfam (2024) hisobotiga ko'ra, dunyodagi eng boy 5 nafar milliarderning boyligi 2020-yildan beri har soatda 14 million dollarga ko'payib, 869 mlrd dollarga yetdi. Shu bilan birga, sayyoramizning 5 milliard aholisi - ya'ni yarmidan ko'pi - inflyatsiya va inqirozlar sababli yanada qashshoqlashdi. Bu «iqtisodiy jarlik» jamiyatda adolat tuyg'usini yo'qotib, dunyoning turli nuqtalarida ommaviy noroziliklar va ijtimoiy portlashlarning asosiy oloviga aylanmoqda.

Ekologik tanazzul: «Tabiatni qurbon qilish evaziga taraqqiyot» Globallashuv «iste'mol madaniyati»ni dunyo bo'ylab yoyib, tabiatni ayovsiz ekspluatatsiya qilishga asoslangan tizimni yaratdi. Rivojlangan davlatlar o'z tabiatini asrash uchun «iflos» sanoat korxonalarini (masalan, kimyo va metallurgiya) rivojlanayotgan davlatlarga ko'chirdi. Bu o'tmishdagi mustamlakachilikning yangi «ekologik ko'rinishi»dir. Natijada, 2024-yilda global CO₂ chiqindilari rekord - 37,8 milliard tonnaga yetdi. Okeanlarning plastik bilan to'lishi, o'rmonlarning kesilishi va iqlim o'zgarishi shuni ko'rsatadiki, sayyoramiz insoniyatning to'yimas global ishtahasini endi ko'tara olmaydigan halokat yoqasiga kelib qoldi.

TMKlar va suverenitet: «Davlatlardan ustun turuvchi korporatsiyalar» O'tmishda davlatlar o'z hududida mutloq hokimiyatga ega edi. Bugun esa Transmilliy korporatsiyalar (TMK) chegara bilmas qudrati bilan milliy hukumatlarni o'z izniga solmoqda. Masalan, »Walmart« korporatsiyasining yillik daromadi Belgiya yoki Shvetsiya kabi barqaror davlatlarning yalpi ichki

mahsulotidan (YIM) ham yuqori. Bunday gigantlar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun davlatlardan soliq imtiyozlari talab qiladi yoki o'z shartlariga ko'ndiradi. Natijada, xalq tomonidan saylangan hukumatlar emas, balki foydani ko'zlagan korporatsiyalar global siyosatning haqiqiy «arxitektoralari»ga aylanib, milliy mustaqillikni virtual tushunchaga aylantirib qo'yimoqda.

Mehnat ekspluatatsiyasi: «Raqamli asrdagi zamonaviy qullik» Globallashuv arzon ishchi kuchi quvlasini boshlab berdi. Kompaniyalar xarajatlarni kamaytirish uchun ishlab chiqarishni ishchilar huquqi deyarli himoyalangan davlatlarga ko'chirmoqda. Rivojlangan davlatlar (masalan, AQSh 2001-yildan beri 3,4 million ish o'rnini yo'qotdi) ishsizlikdan qiynalsa, Janubiy Osiyo va Afrika davlatlarida odamlar kuniga 12-14 soatlab, minimal haq evaziga, og'ir sharoitlarda ishlashga majbur. Bu o'tmishdagi qul bozorlarining zamonaviy, «sivilizatsiyalashgan» ko'rinishidir. Inson mehnatining bunday ayovsiz qadrsizlanishi globallashuvning eng og'riqli nuqtalaridan biridir.

Madaniy degradatsiya: «Dunyoning bir xil andozaga tushib qolishi» Globallashuv madaniy rang-baranglikni «unifikatsiya» qilmoqda, ya'ni dunyoni bir xil - G'arb andozasidagi ommaviy madaniyatga bo'ysundir-moqda. YuNESKOning dahshatli ma'lumotiga ko'ra, globallashuv va «G'arblashuv» ta'sirida har ikki haftada dunyoda bitta til o'lmoqda. Milliy an'analar, kiyinish uslublari va tillar o'rnini global brendlar va «fast-food» madaniyati egallamoqda. Insoniyat o'zining ming yillik rang-barangligini boy berib, bir xil fikrlaydigan, bir xil kiyinadigan va bir xil iste'mol qiladigan «global omma»ga aylanib bormoqda, bu esa sivilizatsiyalar tanazzulining debochasidir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, globallashuvning zamonaviy paradigmasi o'ziga xos "ikki tig'li shamshir" kabidir. Uning ijobiy natijalaridan bahramand bo'lish uchun davlatlar nafaqat global bozorga integratsiyalashishi, balki o'z milliy manfaatlarini, madaniy o'zligini va ekologik barqarorligini himoya qila oladigan kuchli immunitetga ega bo'lishlari shart. Oxfam va Jahon banki kabi tashkilotlarning faktlari shuni isbotlaydiki, agar global boshqaruv tizimi adolat va ijtimoiy tenglik tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqilmasa, boy va kambag'al o'rtasidagi «iqtisodiy jarlik» kelajakda global miqyosdagi boshqarib bo'lmas ijtimoiy portlashlarga olib kelishi muqarrar.

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun globallashuv sharoitida eng maqbul yo'l - bu raqamli iqtisodiyotga tayanish, inson kapitaliga investitsiya kiritish va xomashyo eksportidan tayyor texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tishdir. Faqatgina intellektual salohiyat va kuchli milliy iqtisodiy siyosat orqali globallashuvning salbiy «to'lqinlari»dan himoyalaniish va uning ijobiy imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish mumkin. Zero, globallashuv - bu to'xtatib bo'lmas jarayon, undagi muvaffaqiyat esa faqat bilim va adolatli strategiyaga tayanadigan xalqlarga nasib etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isadjanov A.A, Ismailova N.S. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. O'quv qo'llanma.-T.: IQTISODIYOT 2019-154-b.

2. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Raximov J.M. "Global iqtisodiyotga integratsiya" (O'quv qo'llanma), - T.: TDIU, 2009 y. 232 –bet.
3. Q.A. Isayev. Global siyosiy iqtisodiyot. (O'quv qo'llanma). – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" 2025, 279 bet.
2. Цой М. П., Худояров Р. Т. Рашидов АР ПРОДВИЖЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ //Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami– Jizzax: O'zMU Jizzax filiali. – 2022.
3. Цой М. П., Ибрагимов З. Т. ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 339-342.
4. Цой М. Развития сферы услуг в Узбекистане: тенденции и перспективы //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 73-86.
5. ЦОЙ М. РОЛЬ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В ВОПРОСАХ СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ И СОЗДАНИЯ ДОСТОЙНЫХ РАБОЧИХ МЕСТ–МИРОВОЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
6. Абдуназаров С. А., Цой М. П. Реформирование системы образования Республики Узбекистан //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2016. – №. 10-6. – С. 14-17.
7. Цой М. П. Экономика Узбекистана и роль развития сферы услуг //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-2 (108). – С. 1272-1279.
8. Цой М. П., Носирова С. С., Мухтарова Д. Р. ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 420-424.
9. Bo'ltakov S. O 'ZBEKISTONDA BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ISTIQBOLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 565-567.
10. Bo'ltakov S. BALIQCHILIKDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI VAHOLASH MEZONLARI //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 366-371.
11. Bo'ltakov S. et al. TURIZM SOHASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI ANAMIYATI //Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 60-62.
12. Bo'ltakov S. Innovatsion Usulda Baliq Yetishtirishning Iqtisodiy Samaradorligini Oshirish Yo 'llari (Sirdaryo Tumani Misolida) //Green Economy and Development. – Т. 3. – №. 9. – С. 666837.
13. G'Aybullayev Sarvar O. et al. O 'ZBEKISTONDA ISTE'MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO 'NALISHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 119-125.
14. Akramovich N. A., Sarvar G., Yassim H. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 95-99.

15. Гайбуллаев С., Пулатова М. Ish haqi va mehnat munosabatlari //Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 370-372.
16. Sarvar G., Sirojiddin S., Xushnudbek P. FACTORS AFFECTING LABOR RELATIONS AND ITS WAGE //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 126-129.
17. G'aybullayev S. et al. RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – С. 86-89.
18. Uchkun S., Dilshod N. Process of identifying the significant accounts in the revenue cycle //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 32-36.
19. Najmiddinov D. R., Shodlikov D. E. The effect of the secret economy in a daily life of the society //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1A. – С. 56-59.
20. Khudoyarov R., Kamolov D., Azamatov B. Economic growth, business circulation and economic development //Science technology&Digital finance. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 21-24.
21. Kamolov D. ETHICS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: EXPLORING THE MORAL AND SOCIAL IMPLICATIONS OF AI IN CONTEMPORARY SOCIETY //SGS-Engineering & Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 02.
22. Kamolov D. R. O. G. L. O'zbekistonda demokratiya va axloqning zamonaviy muammolari va yechimlari //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. NUU Conference 2. – С. 348-352.
23. Kamolov D. GLOBALIZATION PHENOMENON AND GLOBALISM //Journal of Contemporary World Studies. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 4-9.
24. Kamolov D., Ismoilova D. RAQAMLASHTIRISHNING O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 301-306.
25. Kamolov D. VIRTUAL TURIZM (VR) XIZMATLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 372-374.
26. Kamolov D. Athenian democracy: individual and collective freedom //Semantic Scholar. – 2021.
27. Kamolov D. Davlat boshqaruviga oid axloqiy qarashlar //Адабиёт учкунлари. – 2021.
28. Kamolov D. ON THE WAY TO THE DIGITAL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN. – 2023.
29. Kamolov D., Asrayev S. STATE POLICY FOR THE DEVELOPMENT OF COMPETITION IN UZBEKISTAN //Science technology&Digital Finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 353-361.
30. Цой М. П. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПЕРЕПИСИ НАСЕЛЕНИЯ В РЕГУЛИРОВАНИИ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА //Экономика и социум. – 2020. – №. 9 (76). – С. 396-402.